

Navoiy viloyatida tadbirkorlar bilan ochiq muloqotlar: kimyo sanoatidagi dolzarb masalalar muhokama qilindi

// 29.07.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/uchrashuv20260729>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan o'tkaziladigan VI ochiq muloqotiga tayyorgarlik doirasida "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati rahbariyatining hududlarda biznes vakillari bilan bevosita uchrashuvlari izchil davom etmoqda.



Navbatdagi uchrashuvlar Navoiy viloyatida tashkil etilib, kimyo sanoati sohasida faoliyat yuritayotgan qator korxonalar — "Elkimyo Agrohimoya" MCHJ, "Industrial Global Group" MCHJ, "Big Step Group 2022" MCHJ, "Navoi Gormash" MCHJ hamda "Ximreaktiv" MCHJ faoliyati bilan yaqindan tanishildi.





Uchrashuvlar davomida tadbirkorlar o'zlarini qiziqtirayotgan masalalar va mavjud muammolar yuzasidan fikr-mulohazalarini bildirdilar. Xususan, ishlab chiqarishga kredit ajratish, xom ashyo ta'minoti, eksportni kengaytirish, yer ajratish hamda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishga oid masalalar ko'tarildi.





Uchrashuvlarda tadbirkorlar tomonidan bildirilgan taklif va muammolar muhokama qilinib, ularni hal etish bo'yicha tegishli mas'ullarga vazifalar belgilandi. Bu kabi muloqotlar davlat va biznes o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.